Jumladan, 2018-yil 7–20-noyabr kunlari Germaniyaning Gyote instituti Toshkent filiali bilan hamkorlik doirasida o'qituvchilarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish sohasidagi yetakchi mutaxassis, pedagogika va psixologiya fanlari doktori, professor **Villi Rof Xanish** institut professor-o'qituvchilarini bilan seminar-trening o'tkazdi. Tashrif davomida menejerlik kurslarining o'quv reja va dasturlari tanqidiy ko'r ibrik chiqildi, Germaniya tajribasi asosida yangi dastur loyihasi ishlab chiqildi. 2018-yil 27-noyabr kuni Janubiy Koreya elchixonasi qoshidagi Koreys o'quv markazi bilan hamkorlikda xorijiy tillarni, jumladan, Koreys tilini o'qitish samaradorligini oshirishga qaratilgan tadbir tashkil etildi.

Rossianing A.S.Pushkin nomidagi rus tili va adabiyoti instituti bilan ikki tomonlama hamkorlik shartnomasini tasdiqlangan. Unga ko'ra, 2019-yilda mamlakatimiz maktablarida faoliyat yuritayotgan rus tili va adabiyoti fani o'qituvchilarini **masofaviy qayta tayyorlash** kurslarini tashkil etishiga kelishib olindi. Ayni payda masofaviy kursning o'quv rejasiga va dasturi ishlab chiqilmoqda.

Toshkent shahridagi **INHA universiteti** bilan hamkorlik memo-

randumiga asosan, institutda qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslari o'quv jarayonlarini tashkil etishning **avtomatlashtirilgan dasturi** ishlab chiqildi. Mazkur loyiha 2019-yil-aprel oyidan amalga tatbiq etildi. Dastur menejerlik kurslarining sifati va tinglovchilar o'zlashtirish darajasini baholabjina qolmay, xalq ta'limi rahbar va mutaxassis xodimlarining yagona ma'lumotlar basasini ham tartibga soladi.

Institut qoshida 2016-yildan **Ta'lima menejment** ixtisosligi bo'yicha tajribalari, doktorantura faoliyat ko'sratmoqda.



Bugungi kunda 9 nafr doktorant va 6 nafr mustaqil tadqiqotchi ilmiy izlanish olib bormoqda. Joriy yilning o'zida 3 nafr ilmiy izlanuvchi doktorantura qabul qilindi. 2018-yilda institut qoshida Vazirlar Mahkamasi huzuridagi OAK Rayosatining qarori (30.05.2018-y., №253/2) bilan pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar beruvchi

**DSc.30.05.2018.Red.68.01 raqamli
ilmiy kengash tuzildi va iyun oyidan faoliyatini boshladi.**

Kitobxonlik — rahbar fazilati

Institut kutubxonasi fondidan jami 19485 ta adabiyot o'rın olgan. Shundan o'quv-metodik adabiyotlar 13824, badiy adabiyotlar 4033 va ijtimoiy-iqtisodiy adabiyotlar soni 1303 tani, ma'lumotnomma va lug'at tipidagi adabiyotlar 325 tani tashkil qiladi. Kutubxonadagi IRBIS elektron katalog dasturiga fondaqqi adabiyotlar to'liq kiritilgan.

2019-yilda Axborot-resurs markazida institut xodimlari va kurs tinglovchilarini foydalanshlari uchun 27 nomidagi gazeta va jurnallar, O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjalari to'plamiga obuna tashkil etildi.

Kitobxonlar internetdan, Wi-Fi xizmatidan ham keng foydalanshi mumkin.

Joriy yildan institutning har bir tinglovchisi test sinovlari va malaka ishi himoyasiga qo'shimcha ravishda kamida bir dona badiiy adabiyotni mutolaa qilib, taassurotlarini yozma taqdim etishi va gapirib berishi yo'iga qo'yildi.

Tinglovchilar mulohazasi

— Ilgari ham uch bora mazkur institut malaka oshirish kurslarida tinglovchi bo'lgan edim, — deydi Buxoro tumanidagi 38-maktab direktori Murod Jo'rayev.

— Bu gal mashg'ułotlarning tashkil etilishi, mazmun va shakl o'zgarishi men uchun yangilik bo'ldi. Dars o'tishning ma'ruza ko'rinishidan deyarli voz kechilgan. Har bir o'qituvchi o'zi o'tayotgan modul haqida tinglovchida to'laqonli tushuncha hosil qilish uchun puxta hozirlik ko'rib, slaydlar tayorlagan, amaly mashg'ułotlarga keng o'r'in bergan. Buning natijasi o'larog, tinglovchi har bir mashg'ułotda ko'tarilayotgan muammoni bilish bilan chegaralanib qolmasdan, uni bartaraf etish usul va yo'llari haqida muayyan malaka va ko'nikma hosil qilyapti.

Qora'o'zak tumanidagi 3-maktab direktori Parvozxon Qurbaniyozova o'z taassurotini shunday ifodalaydi:

— Kursda ishtirok etayotgan ilk kunlarimda "nega menejerlik kursi", "maktab direktori menejer bo'lishi shartmi?" degan savollar ustida ko'p bosh qotirardim. Aslida, "menejer" so'zi "boshqaruvchi" degan ma'noni anglatishini inobatga oladigan bo'lsak, bu hayotiy zururiyat ekan. Men ishlayotgan maktab tuman markazidan anchu olida joylashgan. Mashg'ułotlarda chekka hududdagi ta'lum muassasasi faoliyatiga innovatsiyalar olib kirish, qo'shimcha investitsiyalar jaib etish menin kundalik ishim ekanligini chuqurroq anglab yetdim. 2018-yil 1-oktabrda maktab vasiylik kengashlari tugatilib, Kuzatuv kengashlari tashkil etildi. Maktab faoliyatini nazorat qilishning shafoflashuv direktor zimmasiga avtoritar rahbarlik qilish emas, kollegial boshqaruvchi bo'lish vazifasini yuklaysidi.

Chust tumanidagi 48-maktab direktori Muhammadjon Jo'rayevda "Zamonaviy ta'lum texnologiyalari", "Boshqaruv psixologiyasi" modullarida o'tilgan mashg'ułotlar, ayniqsa, katta taassurot qoldirgan...

— Bu modullarni tinglab, ta'limga yangicha innovatsiyalari olib kirish yasasidan ko'nikmalar hosil qildim, — deydi Muhammadjon Jo'rayev. — Menimcha, kelgusida kursni tashkil etish jarayonida shu modullarga yanada keng o'r'in berilsa, maqsadga muvofiq bo'lardi. To'g'i, 24 kun juda kam muddat, modullarning esa barchasi bugungi kun uchun muhim. Bir xillikka aylanib qolgan malaka ishlari o'miga, tinglovchilarini ta'limga yangi innovatsiyalar Joriy etish bo'yicha vazifasini keltirarmi.

Institutda tinglovchilarning jismoniy sog'lomligini, ma'naviy yetukligini yanada rivojlantirish maqsadida ishlab chiqarish gimnastikasi bilan bir vaqtida sportning futbol, voleybol, basketbol, stol tennisi turlari bo'yicha musobaqalar, turli sohalarning yetuk mutaxassislarini bilan o'tkazilayotgan davra suhbatlari, ijodkorlar ishtirokidagi adabiy-badiiy kechalar kurs mazmundorligini oshirishga xizmat qilyapti.

**Abdunabi ABDIYEV,
O'zbekiston Jurnalistari ijodiy
uyushmasi a'zosi**

2019-yil 10-aprel, № 27 (9196)

Hamma abituriyent talaba bo'lsin!

Test savollarini tuzishda foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

So'nggi ikki-yilda yurtimizda oliy ma'lumotli mutaxassislar safini kengaytirish, oliy ta'lim muassasalari qamrovini oshirish borasida necha o'n yilliklarga tatigulik ishlar qilindi. Bu ezgu sa'y-harakatlar yoshlarning oliy ma'lumot olishga qiziqishini yanada kuchaytirib, test sinovlariga tayyorgarlik sur'atini oshirgani shubhasiz. Biroq abituriyentning vaqtini oz, o'qiydigan darslik va adabiyotlari esa ko'p. Boz ustiga, darsliklarning har 4-5 yilda yangilanishini hisobga olsak, abituriyentlarga oson emasligi kunday ravshanlashadi.

Biologiya					
Nº	Darslik nomi	Sinf	Muallifi	Nashriyoti	Nashr yili
1.	Botanika	5-sinf	O'.Pratov, A.To'xtayev, F.Azimova	"O'zbekiston"	2015
2.	Biologiya-Botanika	6-sinf	O'.Pratov, M.Umaraliyeva	"O'zbekiston"	2017
3.	Biologiya-Zoologiya	7-sinf	O.Mavlonov	"O'zbekiston milliy ensiklopediyasi"	2017
4.	Odam va uning salomatligi	8-sinf	B.Aminov, T.Tilovov, O.Mavlonov	"O'zbekiston"	2014
5.	Biologiya-Sitoligiya va genetika asoslarini	9-sinf	A.Zikirayev, A.To'xtayev, I.Azimov, N.Sonin	"Yangyo'l poligraf servis"	2014
6.	Biologiya	10-sinf	A.G'afurov, A.Abdukarimov, J.Tolipova, O.Ishankulov, M.Umaraliyeva, L.Abduraxmonova	"Sharq"	2017
7.	Biologiya	11-sinf	A.G'afurov, A.Abdukarimov, J.Tolipova, O.Ishankulov, M.Umaraliyeva, L.Abduraxmonova	"Sharq"	2018
8.	Biologiya	AL va KHK	A.Abdukarimov, A.G'afurov, A.Nishonbayev, J.Hamidov, B.Toshmuhamedov, O.Eshonqulov	"Sharq"	2015

Fizika					
Nº	Darslik nomi	Sinf	Muallifi	Nashriyoti	Nashr yili
1.	Fizika	6-sinf	N.Turdiev	"Cho'lp'on"	2017
2.	Fizika	7-sinf	P.Habibullayev va b.	"O'zbekiston milliy ensiklopediyasi"	2017
3.	Fizika	8-sinf	P.Habibullayev va b.	"G'afur G'ulom"	2014
4.	Fizika	9-sinf	P.Habibullayev va b.	"G'afur G'ulom"	2014
5.	Fizika	10-sinf	N.Turdiev va b.	"Niso poligraf"	2017
6.	Fizika	11-sinf	N.Turdiev va b.	"Niso poligraf"	2018
7.	Fizika 1-, 2-qism	AL	A.Ganiyev va b.	"O'qituvchi"	2013
8.	Fizika	AL	M.O'imasova	"O'qituvchi"	2010
9.	Fizika II	AL	M.O'imasova	"O'qituvchi"	2010
10.	Fizika	AL	M.O'imasova	"Cho'lp'on"	2010
11.	Fizika 1-3-qism	AL va KHK	A.No'monxo'jayev	"O'qituvchi"	2002
					2004

Geografiya					
Nº	Darslik nomi	Sinf	Muallifi	Nashriyoti	Nashr yili
1.	Geografiya (Tabiiy geografiya boshlang'ich kursi)	5-sinf	P.G'ulomov	"Yangyo'l poligraf servis"	2015
2.	Geografiya (Materiklar va okeanlar tabiiy geografiysi)	6-sinf	A.Soatoev va b.	"O'qituvchi"	2017
3.	Geografiya (Orta Osiyo va O'zbekiston tabiiy geografiysi)	7-sinf	P.G'ulomov va b.	"O'qituvchi"	2017
4.	Geografiya (O'zbekistonning iqtisodiy va ijtimoiy geografiysi)	8-sinf	P.Musayev va b.	"Sharq"	2014
5.	Jahon iqtisodiy-jitmoiy geografiysi	9-sinf	A.Qayumov va b.	"O'zbekiston"	2014
6.	Geografiya (Amaliy geografiya)	10-sinf	Sh.Sharipov va b.	"O'zbekiston milliy ensiklopediyasi"	2017
7.	Amaliy geografiya	AL va KHK	A.Rafiqov va b.	"Sharq"	2014
8.	Iqtisodiy-siyosiy geografiya	AL va KHK	A.Soliyev	"Talqin"	2003
9.	Geografik atlaslar	5—9-sinflar		"YERGEODEZ-KADASTR"	2017

Informatika					
Nº	Darslik nomi	Sinf	Muallifi	Nashriyoti	Nashr yili
1.	Informatika	5-sinf	D.Kamoliddinova	"O'zbekiston"	2016
2.	Informatika va axborot texnologiyalar	6-sinf	B.Boltayev va b.	"O'zbekiston"	2017
3.	Informatika va axborot texnologiyalar	7-sinf	B.Boltayev va b.	"O'zbekiston milliy ensiklopediyasi"	2017
4.	Informatika va hisoblash texnikasi asoslarini	8-sinf	B.Boltayev va b.	"O'zbekiston milliy ensiklopediyasi"	2015
5.	Informatika va hisoblash texnikasi asoslarini	9-sinf	B.Boltayev va b.	"Cho'lp'on"	2015
6.	Informatika va axborot texnologiyalar	10-sinf	N.Toyloqov va b.	"Ekstremum press"	2017
7.	Informatika va axborot texnologiyalar	11-sinf	N.Toyloqov va b.	"Ekstremum press"	2018
8.	Informatika va axborot texnologiyalar	AL va KHK	A.Sattorov	"O'qituvchi"	2013
9.	Informatika	AL va KHK	A.Axmedov va b.	"O'zbekiston"	2002
10.	Informatika asoslarini	AL va KHK	M.Aripov va b.	"O'qituvchi"	2002
11.	Informatika	AL va KHK	R.Boqiyev	"Fan va texnologiya"	2012
12.	Informatika	AL va KHK	U.Yuldashev va b.	"Talqin"	2005

Kimyo					
Nº	Darslik nomi	Sinf	Muallifi	Nashriyoti	Nashr yili
1.	Kimyo	7-sinf	I.Asqarov va b.	"Sharq"	2017
2.	Kimyo	8-sinf	I.Asqarov va b.	"Yangyo'l poligraf servis"	2014
3.	Kimyo	9-sinf	I.Asqarov va b.	"O'zbekiston milliy ensiklopediyasi"	2014
4.	Organik kimyo	10-sinf	A.Mutalibov va b.	"G'afur G'ulom"	2017
5.	Umumi kimyo	11-sinf	S.Masharipov va b.	"G'afur G'ulom"	2018
6.	Organik kimyo	AL va KHK	A.Abdusamatov va b.	"O'qituvchi"	2011
7.	Anorganik kimyo	AL va KHK	I.A.Toshev va b.	"O'qituvchi"	2016
8.	Kimyo	AL va KHK	S.Masharipov, I.Tirkashov	"O'qituvchi"	2014

Matematika					
Nº	Darslik nomi	Sinf	Muallifi	Nashriyoti	Nashr yili
1.	Matematika	5-sinf	B.Haydarov	"Yangyo'l poligraf servis"	2015
2.	Matematika	6-sinf	M.Mirzaahmedov va b.	"O'qituvchi"	2017
3.	Algebra	7-sinf	Sh.Alimov va b.	"O'qituvchi"	2017
4.	Geometriya	7-sinf	A.Azamov va b.	"Yangyo'l poligraf servis"	2017
5.	Algebra	8-sinf	Sh.Alimov va b.	"O'qituvchi"	2014
6.	Geometriya	8-sinf	A.Rahimqoriyev	"Yangyo'l poligraf servis"	2014
7.	Algebra	9-sinf	Sh.Alimov va b.	"O'qituvchi"	2014
8.	Geometriya	9-sinf	B.Haydarov va b.	"O'zbekiston milliy ensiklopediyasi"	2014

9.	Matematika (Algebra va analiz asoslarini. Geometriya) I va II qism	10-sinf, 1-bosqich AL va KHK	M.Mirzaahmedov va b.	"Ekstremum press"	2017
10.	Matematika (Algebra va analiz asoslarini. Geometriya) I va II qism	11-sinf, II kurs AL va KHK	M.Mirzaahmedov va b.	"Zamin nashr"	2018
11.	Algebra va analiz asoslarini I va II qism	AL va KHK	A.Abduhamedov va b.	"O'qituvchi"	2014
12.	Geometriya I va II qism	AL va KHK	I.Isoirov, Z.Pashayev	"O'qituvchi"	2010
13.	Algebra va analiz asoslarini	AL va KHK	R.Vafayev va b.	"O'qituvchi"	2003
14.	Matematika I va II qism	AL va KHK	A.Meliquov va b.	"O'qituvchi"	2014
15.	Geometriya	AL va KHK	X.Sayfullayeva	"O'qituvchi"	2005

Nemis tili

Hamma abituriyent talaba bo'lsin!

Test savollarini tuzishda foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

(Davomi. Bosh 8-9-bettarda)

5.	"Mirzo Ulug'bek"	Maqsd Shayxzoda (Fojia. Asarlar 3-tom)	"G'afur G'ulom"	1972
6.	"Yulduzlar mangu yonadi"	Tog'ay Murod (qissa)	"Sharq"	2009
7.	"Yulduzli tunlar"	Pirimqul Qodirov (roman)	"Sharq"	2016
8.	"Dunyoning ishlari"	O'tkir Hoshimov (qissa)	"Yangi asr avlodii"	2015
9.	"Ruhlar isyonii"	Erkin Vohidov (doston)	"G'afur G'ulom"	1980
10.	"Sohibqiron"	Abdulla Oripov (she'riy drama)	"Akademik"	2016

IZOH. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 13-sentabrda "Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantrish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlari dasturi to'g'risida"gi qaroriga asosan umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining o'quv dasturlarida berilgan yuqoridaq badiiy asarlarning darslik va darslik-majmualarda berilgan parchalaringina emas, balki ularni to'liq o'qib chiqish tushusi qilinadi.

Jadvalda to'liq o'qib chiqish uchun tushusi etilgan badiiy asarlarning nashriyotlari ko'rsatildi. Abituriyentlarni shu asarlarning boshqa nashriyotlardan chiqarilgan nashrlarini ham o'qishi mumkin.

Русский язык и литература					
№	Название учебника	Класс, курс	Автор	Издательство	Год издания
1.	Русский язык	5 класс	Зеленина В.И. и др.	"Узбекистан"	2015
2.	Русский язык	6 класс	Зеленина В.И.	"Шарк"	2017
3.	Русский язык	7 класс	Рожнова М.Э.	"Янгиюль полиграф сервис"	2017
4.	Русский язык	8 класс	Зеленина В.И. и др.	"Турон-Икбол"	2014
5.	Русский язык	9 класс	Зеленина В.И. и др.	"Узбекистан"	2014
6.	Русский язык	10 класс	Рахматуллаева Г.М., Кельдиев Т.Т.	"Extremum-press"	2017
7.	Русский язык	11 класс	Кельдиев Т.Т. и др.	"Extremum-press"	2018
8.	Литература	7 класс	Андрянова В.И. и др.	"Янгиюль полиграф сервис"	2017
9.	Литература (1, 2 часть)	8 класс	Варфоломеев И.П. и др.	"Узбекистан"	2014
10.	Литература (1, 2 часть)	9 класс	Гарипова Г.Т. и др.	"Узбекистан"	2014
11.	Литература (1, 2 часть)	10 класс, средних специальных уч. заведений	Миркурбанов Н.М. и др.	ИПДТ имени Чулпана	2017
12.	Литература (1, 2 часть)	11 класс, средних специальных уч. заведений	Миркурбанов Н.М. и др.	ИПДТ имени Чулпана	2018
13.	Литература	АЛ и ПК	Миркурбанов Н.М. и др.	ИПДТ имени Чулпана	2011
14.	Русский язык	АЛ	З.Жураева	Фан ва технология	2016

Список произведений к обязательному прочтению по предмету "русский язык и литература"

Литературная критика:	
1.	И.А.Гончаров «Мильон терзаний».
2.	В.Г.Белинский «Герой нашего времени», «Сочинения Александра Пушкина» (статьи 7,8,9).
3.	Н.Добролюбов «Что такое «обломовщина?», «Темное царство», «Луч света в темном царстве».
4.	Д.Писарев «Базаров»
Проза:	
1.	А.С.Пушкин «Евгений Онегин», «Повести Белкина», «Капитанская дочка»
2.	М.Ю.Лермонтов «Герой нашего времени»
3.	Н.В.Гоголь «Мертвые души», «Нос», «Шинель»
4.	А.А.Гончаров «Обломов»
5.	М.Е.Салтыков-Щедрин «Господа Головлевы», «Дикий помещик», «Премудрый пекарь», «Как мужик двух генералов прокормил»
6.	И.С.Тургенев «Бумистру», «Бирюко», «Отцы и дети»
7.	Ф.М.Достоевский «Бедные люди», «Преступление и наказание»
8.	Л.Н.Толстой «После бала», «Война и мир»
9.	А.П.Чехов «Ионыч», «Человек в футляре», «Хамелеон», «Толстый и тонкий», «Дама с собачкой»
10.	В.Набоков «Защита Лужина»
11.	И.А.Бунин «Антоновские яблочки», «Господин из Сан-Франциско», «Тёмные аллеи», «Чаша жизни»
12.	А.И.Куприн «Оллсся», «Гранатовый браслет», «Поединок»
13.	Л.Андреев «Иуда Искариот»
14.	М.Горький «Старуха Изергиль», «Челкаша», «Песня о Соколе», «Макар Чудра»
15.	Б.Пастернак (обзор) «Доктор Живаго»

16.	Б.Васильев «А зори здесь тихие»
17.	Ю.Бондарев (обзор) «Горячий снег»
18.	А.Солженицын «Один день Ивана Денисовича»
19.	М.Шолохов «Судьба человека», «Тихий Дон»
20.	А.Н.Толстой «Петр Первый»
21.	М.Булгаков «Мастер и Маргарита», «Собачье сердце»
22.	В.Распутин «Прощание с Матерью»
23.	Ю.Трифонов «Обмен»
24.	В.Шукшин «Чудик», «Микроскоп»

Поэзия:

1.	М.В.Ломоносов «Ода на день восшествия на престол Елизаветы Петровны, 1747 года», «Я знак бессмертия себе воздвигну»
2.	А.С.Пушкин «Деревня», «Во глубине сибирских руд», «К Чаадаеву», «К морю», «К***», «Пророк», «Анчар», «На холмах Грузии лежит ночная мгла...», «Я вас любил...», «Я памятник себе воздвиг нерукотворный...», «...Вновь я посетил...»
3.	М.Ю.Лермонтов «Парус», «Как часто пестрою тополю», «Узник», «Нет, я не Байрон», «Утес», «Смерть поэта», «Пучин», «Родина», «Пророк», «И скучно, и грустно...», «Поэт», «Горная вершина», «Дума», «Когда волнуется желтеющая нива», «Выхожу один я на дорогу», поэма «Мцыри»
4.	Н.В.Гоголь «Тарас Бульба»
5.	Ф.И.Тютчев «Silentium!», «Умом Россию не понять...», «О, как убийственно мы любим...», «Я встретил вас — и все былое...», «Природа — сфинкс. И тем она верней...», «Весенняя гроза», «Весенние воды»
6.	А.А.Фет Это утро, радость эта...», «Шепот, робкое дыханье...», «Сияла ночь. Луной был полон сад...», «Я пришел к тебе с приветом»
7.	Н.А.Некрасов «В дороге», «Тройка», «Родина», «Поэт и гражданин», «Размысления у парадного подъезда», поэмы «Железная дорога», «Кому на Руси жить хорошо»
8.	Н.Гумилев «Я и Вы», «Жираф», «Заблудившийся трамвай»
9.	А.Ахматова «Не с теми я, кто бросил землю...», «Сжала руки под темной вуалью.», «Мне голос был.», «Мужество», «Гашкент заинсталет.», «Эти рыбы глаза.» Пoэма «Реквием»
10.	А.Блок «Фабрика», «Незнакомка», «На поле Куликовом», «Россия», «Ночь, улица, фонарь, аптека.», «Река раскинулась. Течет, грустит лениво...», «О доблестях, о подвигах, о славе.», «О, я хочу безумно жить.»
11.	С.Есенин Цикл «Персидские мотивы» («Шаган», ты моя, Шаганэ», «Никогда я не был на Босфоре»), «Быть поэтом — это значит», «До свиданья, друг мой, до свиданья», «Письмо матери», «Мы теперь уходим понемногу.», «Синт ковыль», «Но жалею, не зову, не плачу», «Низкий дом с голубыми ставнями.»
12.	В.Маяковский «Нате!», «Вам», «Хоропее отношение к лошадям», «Лиличка», «А вы могли бы.», «Послушайте!», «Юбилейное», «О дрине», «Прозастаныш», «Письмо Татьяне Яковлевой», поэма «Облако в штанах»
13.	М.Цветаева «Моим стихам, написанным так рано.», «Имя твое — птица в руке.», «Кто создан из камня, кто создан из глины.», «Семь холмов — как семь колоколов!..»
14.	О.Мандельштам «Я вернулся в мой город, знакомый до слез...», «Мы живем, под собою не чуя страны», «Бессонница. Гомер. Тутие паруса.»
15.	Б.Пастернак «Февраль. Достать чернил и плакать!..», «Определение поэзии», «Во всем мне хочется дойти...», «Гамлет», «Зимняя ночь» («Мело, мело по всей земле...»), «Любить иных — тяжелый крест...»
16.	А.Твардовский «Василий Теркин»
17.	И.Бродский «Ночной полет», «Одиссей Телемаку»
18.	А.Вознесенский «Из ташкентского репортажа», «Рябина в Париже»
19.	В.Высоцкий «Песня о друге», «Братские могилы»
20.	Е.Евтушенко «Хотят ли русские войны», «Идут белые снеги»
21.	Б.Окуджава «Грузинская песня», «Часовые любви»
22.	Н.Рубцов «Тихая моя родина...»
Драматургия:	
1.	Д.И.Фонвизин «Недоросль»
2.	А.С.Грибоедов «Горе от ума»
3.	Н.В.Гоголь «Ревизор»
4.	А.Н.Островский «Гроза», «Беспринаднинца»
5.	А.П.Чехов «Вишневый сад»
6.	М.Горький «На дне»
7.	А.Вампилов «Утиная охота»
Литература родного края:	
1.	Основные факты жизни и творчества Алишер Навои «Пятерица» («Фарҳад и Ширин»), «Газели»; Бобур — обзор творчества, «Газели», «Рӯбӯз»; основные факты жизни и творчества Увайси; основные факты жизни и творчества Мукими, Фурката.
Литература XX века:	
1.	Основные факты жизни и творчества: Фиррат, Чулпан, А.Кадыры, Г.Гулям (поэзия), Айбек, А.Каххар, Х.Алимджан, Зульфия, С.Ахмад, Э.Вахидов, А.Арипов, У.Хашимов, Ш.Холмирзаев.

2019-yil 10-aprel, № 27 (9196)

Habibulla Qodiriy "Otam haqida" kitobida Abdulla Qodiriyning "Jinlar bazmi" hikoyasi to'g'risida: "...bu hikoya dadamning aytishlaricha, 1916-yilda yozilgan. Lekin birinchi bor 1921-yilda "Sharq chechagi" jurnalida bosiladi", deb ma'lumot beradi. Bu bolalar jurnalni maorif komissarligiga qarashli bo'lib, birinchi soni o'sha yili bahorida "Bolalar dunyosi" nomi bilan bosiladi. Ikkinci sonidan jurnalning nomi "Sharq chechagi"ga o'zgaradi. Unda Sanjar Siddiq, Elbek, Cho'pon va boshqalar faoliyat ko'rsatadi. Julqunboy unda "Jinlar bazmi" hikoyasi bilan qatnashgan.

Hozir biz o'qib yurgan hikoya adibning qalami charxlangan, yozuvchilik mahorati oshgan davri mahsulidek taassurot qoldiradi. Aniqroq aytganda, kitobxonalar orasida ommalashgan "Jinlar bazmi" 1936-yildagi nusxa asosida nashrga tayyorlangan. Hikoyaning 1921-yildagi jurnal varianti qanday? Undagi

teranlashtirish, voqelikka jon bag'ishlash uchun chakalakzor maydonni maxsus nom bilan ataydi.

Ikki nusxada bosh qahramon ismi ikki xil beriladi. Avvalgi nusxadagi "To'g'onboy aka"ni adib keyingi nusxada "O'sar aka"ga o'zgartiradi. Aslida, o'z qahramonlari uchun original ismlar qo'yadigan, ismlarni o'z tabiatiga

Ikki "Jinlar bazmi"

mazmun-mohiyat keyingi nashrlarda to'la saqlanganmi? Farqlar — kiritma yo qisqartmalar, tahrir o'zgarishlari yo'qmi?

To'g'risi, hikoyaning bolalar jurnalida bosilgan ilk nusxasini izlab topishning imkonи bo'limadi. Ammo o'sha sanaga yaqin, ya'ni 1923-yili Elbek tomonidan tuzilib, 1925-yili bosilgan "Go'zal yozg'ichilar" adabiy to'plamiga kiritilgan "Jinlar bazmi" 1936-yildagi nusxa bilan qiyoslanganida bir qancha farqlar ko'rindi.

Hikoya hajmi keyingi nusxada biroz kengayib, bog'dorchilikka oid atamalar, bir qancha realistik tasvir unsurlari bilan boytiladi. Asarning 1923-yilgi nusxsasida keltirilgan tasvirlar nisbatan soddha. Unda qahramonning bog'dan chiqib ketish holatlari, bog' atrofidagi maydon va chakalakzor, "o'tkir nur shars-pasi"ning ko'rinishi batafsil berilmaydi; "Hamdam xumdonchining chakalagi", "Hamdam xumdonchining maydoni" iboralari ham uchramaydi. Demak, Abdulla Qodiriy badiiy tasvirni

mos so'zlatadigan Qodiriy tanlagan har ikki ism ham e'tiborga munosibdir. Chunki jinlarga uchragan odam allaqanday to'g'onga, g'ov-to'siqqa duch kelgan bo'ladi. Shu ma'noda, hikoya qahramoni uchun "To'g'onboy" ismi juda mos tushadi. Adib bu ism zimmasidagi yukdan qoniqmaydi, chamasni, uni keyingi nusxada "O'sar aka"ga almashtiradi. Bizningcha, boshidan o'tgan hodisani ta'sirchan so'zlayotgan kishi mulohaza qilayotgan, fikri jihatdan o'sayotgan odamdir.

Qiyosda hikoyaning "Shunday jinlarga yo'liqtirma", deb qo'yar edim" gapiga 1936-yilgi nusxsasida "Meni ham shunday jinlarga yo'liqtirma", deb Tangriga yolborib qo'yar edim" tarzida bir-ikki so'z qo'shilgani kuzatildi.

Hikoya sujetiga ko'ra, yangi kelgan mehmon oldiga dasturxon yozishdan avval jinlar To'g'onboy akani birgalikda bazm qilishga undashadi. "Men ham ko'nganligimi bildirdim". Ushbu rizolik keyingi nusxada: "Mening qornim och bo'lsa ham, mehnmonligim vajhidan uning fikriga qo'shilishdan boshqa choram yo'q edi", degan ko'rinishga keladi.

Hikoyaning ikki nusxasi qiyoslanganda "choqda" — vaqtida, og'ochlik — daraxtlik, kuchsiz — zaif, yurak — ko'ngil, yarali — majruh, kuch — majol" kabi ko'plab so'zlar, shuningdek, "og'ochlар о'норлар ослиг'он" — daraxt shoxlariga chiroqlar osilgan, "cholg'ular to'g'rilandilar" — sozlar sozlandilar, "borlig'img'a issig'liq yugurdil" — vujudimga hayot suvi yugurdil" kabi so'z birikmalarini tahrir qilingani ma'lum bo'ldi.

Aslida, madrasa tahsilini ko'rgan Abdulla Qodiriy uchun o'zbek adabiy tilining tarkibida juda faol ishlataligil forscha va arabcha so'zlar borasida muammo yo'q edi. "Go'zal yozg'ichilar"da hikoya quyidagicha yakunlanadi: "Men otamning bu voqeasini muallim afandiga so'zlagan edim, ishonmadni. Quruq xayol, dedi. Shundan beri bu to'g'rida boshim qotadi.

"Go'zal yozg'ichilar"da hikoya quyidagicha yakunlanadi: "Men otamning bu voqeasini muallim afandiga so'zlagan edim, ishonmadni. Quruq xayol, dedi. Shundan beri bu to'g'rida boshim qotadi.

Chindan ham bunday ish bo'lardimi? Yoxud muallim afandining aytganlaricha quruq xayolmi?".

1936-yilgi nusxada yakun biroz boshqacha ko'rinishga ega: "Men otamning bu ko'rgan hodisasini muallim afandiga so'zlagan edim, kuldil:

— Vahima, xayolot! — dedi.

— Chindan ham vahimmi, vahim

Abdulla Qodiriy tavalludining 125 yilligiga

narsalaridagi bo'lgan qaysi bir o'zgarishlar"i uchun o'zini uylatirmsliklarini so'radidi. Shuningdek, tanlangan matnlarda "bolalarning ruhig'a qarab qaysi bir o'zgarishlar" qilinganini yozadi.

E'tirofiga ko'ra, Elbek so'zlarni almashtirgan, bola ruhiyatini inobatga olib, tahrirish ham kirtigandir. Biroq hikoyadagi "To'g'onboy aka" yoki "Hamdam xumdonchi" kabi nomlarga daxil qilishi ishchonsiz ko'rindan.

Albatta, hikoyada jiddiy va juz'iyo'zgarishlar bor. Lekin uni mahkam o'shlab turgan o'qildizi, ya'ni To'g'onboy akani jinlar avrashi, dasturxon boshiga kelganida chalg'itib, fotiha o'qishga yo'l qo'yimagani har ikki nusxada deyarli bir

bo'lsa kishida qanday voqe' bo'ladi? — deb so'ragan edim, afandim:

— Kelasi juma bolalar o'trasisda bu to'g'ida ma'lumot beraman, sen ham shu majlisida hozir bo'lsang, vahimning qanday voqe' bo'lishini bilib olasan! — dedi.

Men, albatta, juma kuni maktabga borib, afandimidan vahimning kishida paydo bo'lishini eshitaman. Vaqtizing bo'lsa juma kuni siz ham boringiz". Ikki nusxaning oxiri shunday farqli. Biroq har ikkovidia ham, eng muhimmi, muallif hodisining "quruq xayol" yoki haqiqat ekani yuzasidan hukm bermaydi, masalani o'quvchi muhokamasi, fikrlab izlanishi uchun oqchi goldiradi. Bunday original tuganchilar sababli o'quvchi



xil saqlanadi: "Ular meni o'z ixtiyorimg'a qo'ymasdan sudrab, tortib to'rga chiqardilar. Odatda majliska kirkach, fotiha o'qilur edi. Biroq ularning turli so'rog' va muomalalari bilan ovora so'rog'lu fotiha o'qush ham esimdan chiqibdir".

Ma'lumki, jin va shayton Olloh nomi zikr etilgan joyda o'z amallarini bajar olmay qoladi. Bu tushunchaga doir mo'tabar manbalarni Abdulla Qodiriy juda yaxshi bilgan. Ikkinchidan, avalgi nusxada: "Men bog'dan chiq'onda xufton bo'lub qolq'on edi", degan gapga keyingi nusxada "Qosh qorayib, qorong'i tushgan paytda arang poya ishidan qutuldim. Yuz-qo'llarimni yuvib, salcha-choponimni kiyaganimda obdon qorong'i bosgan edi... Men bog'dan chiq'anda xufton bo'limasa ham shunga yaqinlashib qolq'an edi...", deb juz'iy o'zgartirish kiritadi. Muallif voqelik yuz bergan vaqtini jinday oldinga — shoni tarafaga qarab suradi. Shom bilan xufton oralig'ida esa jinlar bazm qiladi. Shaytonlar quyosh botgandan to tun zulmati cho'kkuncha qo'yib yubarilishi haqida hadis bor. Tasvirga olingan har bir detalga, har bir so'zga jiddiy e'tibor beradigan hikoyanavis o'z qahramonini jinlarga xufton bilan shom orasida yo'liqtiradi. "To'g'onboy aka" hikoyasini: "Qop-qorong'i maydon. Bir arig' ichida yotibman...", "O'sar aka" esa: "Qop-qorong'i maydon, bir ariq ichida turibman...", deb tugatadi. Adib jinlarning bazm vaqtiga qo'shimcha ravishda makonini ham asosli ko'rsatadi. Chunki jinlar "ariq ichi" kabi chuqur joylarda ham yashaydi.

Demak, biz bugun o'qib yurgan "Jinlar bazmi"dan boshqa, hatto hikoyaning bosh qahramoni nomi o'zgargan nusxasi bor ekan, adabiy manbani qiyosiy o'rganish, va albatta, avvalgisini variant sifatida kelgusida hozirlandigan abidning mukammal asarlari to'plamining ilova qismiga kiritish lozim.

Eskartma:

Qiziq bir tasodifni qarangki, bilibmilmaymi o'sha hikoyanavis bolanining oxirgi taklifini 1998-yili Berlinga borganimda Gumbold universiteti muallimasi Zigid Klainmixel takrorladi. U talabalari bilan "Jinlar bazmi"ni o'qimoqchi ekan: "Vaqtizing bo'lsa, juma kuni "Jinlar bazmi" muhokamasi siz ham boring", deb mashg'ulotiga taklif etdi. Bordin. Talabalar hikoyani o'qib, nemis tiliga o'girib, filologik nuqtayi nazaridan imkonlari doirasida tahsil qilar edilar. Ora-orada "bardi", "istak", "poya" kabi so'zlar izohini mendan ham so'rab turishdi. "Jinlar bazmi"ning ikki nusxasini choc'ishtirish mahali o'rinnimi-o'rinsizmi, bilmadim, o'sha xotirani ham eslab o'tishni ma'qul ko'dim. Shu xotiraga uyqash ravishda "Jinlar bazmi"ni bugun dunyo o'qimoqda, desak, biroz mubulag'a qilgan bo'lamic. Lekin asar dunyo hikoyachiligining sara namunalari qatoridan o'rion olishga loyiqliqdır, desak, adibning bir "go'zal yozg'ich'i", o'tkir qalami, mahorati to'g'ri baholangan bo'ladi.

Bahodir KARIM,
adabiyotshunos

Kompaniyalar va firmalar rahbarlari diqqatiga!

2019-2020-o'quv yilida o'quv qurollari xarid qilish bo'yicha TENDER E'LON QILINADI

Tender savdolarida tenderda ishtirok etish shartlariga mos keladigan, har qanday mulkchilik shaklidan qat'i nazar, yuridik shaxslar va kichik biznes subyektlari, shuningdek, taklif etilayotgan mahsulotlarni ishlab chiqaruvchi korxonalar va (yoki) zavod-ishlab chiqaruvchi korxonalar tomonidan majburiyatlari to'liq kafolatlangan vakolatlari mahsulotlarni yetkazib beruvchilar ishtirok etishlari mumkin.

1. Buyurtmachi nomi: "O'quv ta'lif-ta'minot" DUK.

Buyurtmachi manzili: 100077, O'zbekiston Respublikasi, Toshkent sh., Mirzo Ulug'bek tumani, Sayram ko'chasi, 3-tor ko'cha, 92-uy. Telefon: (71) 267-01-83, 267-74-50, 267-28-70. Faks: (71) 267-71-16. E-mail: talimtaminot@mail.ru.

2. Tender predmeti: 2019-2020-o'quv yilida 1-sinfga qabul qilinishi rejalashtirilayotgan o'quvchilar va uzoq vaqt davolanishga muhtoj uyda yakka tartibda ta'lif oladigan bolalarga o'quv qurollari xarid qilish.

3. Xaridning yuqori qiymati 81 556 287 810 so'mni tashkil qiladi, shu jumladan:

Lot raqami	Mahsulot nomi	O'ichov birligi	Soni	Bir dona mahsulot uchun eng yuqori narx (so'm)	Eng yuqori qiymati (so'm)
1	Yotiqli chiziqli daftar (12 varaq, qog'oz zichligi 80 gr/m ² dan kam emas)	dona	3 817 692	712	2 718 196 704
	Katak daftari (12 varaq, qog'oz zichligi 80 gr/m ² dan kam emas)	dona	3 817 692	712	2 718 196 704
2	Akvarel bo'yogi (ranglar soni 12 tadan kam bo'Imagan, kataklarda 3,5 kub sm.dan kam bo'Imagan tayyor mahsulot bo'lishi lozim)	quti	640 854	6 800	4 357 807 200
3	Plastilin (8 rangdan kam bo'Imagan, 1 pachkaning vazni 160 gramdan kam bo'Imagan)	quti	608 892	7 500	4 566 690 000
4	Rangli qalamlar (ranglar soni 12 tadan kam bo'Imagan, nominal uzunligi 177 mm)	quti	633 669	5 530	3 504 189 570
5	Oddiy qora qalam (qalamning nominal uzunligi — o'chirg'ichi bilan 190 mm)	dona	1 281 708	504	645 980 832
6	Qakandon (uzunligi 200 mm.dan kam bo'Imagan, eni 70 mm.dan kam bo'Imagan, balandligi 20 mm.dan kam bo'Imagan)	dona	608 892	6 200	3 775 130 140
7	Rasm daftari (varaqlar soni — 12 ta, varaqlar qog'ozining zichligi 112 gr/m ² dan kam bo'Imagan, jild qog'ozining zichligi 120 gr/m ² dan kam bo'Imagan)	dona	656 526	2 450	1 608 488 700
8	Rangli qog'ozlar to'plami (rangli varaqlar soni — 16 ta, ranglar soni — 8 ta, rangli qog'ozning zichligi 80 gr/m ² , jild qog'ozining zichligi 112—120 gr/m ²)	to'plam	659 137	2 700	1 779 669 900
9	Ruchka sharikli (ruchka ko'k yoki binafsha rangda, ruchkani ish holatidagi yo'zuv qismi ruchka qobig'idan kamida 1,5 mm chiqqan bo'lishi kerak)	dona	681 510	500	328 263 000
10	O'chirg'ich (lastik) — (uzunligi 40 mm, eni 15 mm, qalinligi 10 mm)	dona	1 218 580	498	606 852 840
11	Yelim-qalam (vazni 21 gr.dan kam bo'Imagan, mineral tarkibli, tez qotadigan xususiyati, yoqimsiz hid chiqarmaydigan, sovuqqa chidambo'lishi kerak)	dona	640 854	2 940	1 884 110 760
12	O'quvchilar sumkasi (bir seksiyali, katta ichki cho'ntakdan iborat, balandligi 380 mm, eni 280 mm, yon qismi eni 100 mm, og'irligi 600 gramdan ortiq bo'lmastigi lozim)	dona	640 854	82 800	53 062 711 200

Tenderning har bir loti tender obyektining alohida birligi sifatida ko'riladi, ya'ni tender ishtirokchilari bitta, bir necha yoki hamma lotlar bo'yicha ishtirok etishlari mumkin. Buyurtmachi ma'lum bir lot(lar) bo'yicha eng yaxshi taklifi taqdirm etgan bir nechta tender ishtirokchilari bilan shartnoma tuzishi mumkin.

6. Moliyalashtirish manbayi: budjet mablag'lari.

5. To'lov valyutasi:

mahalliy yetkazib beruvchilar uchun: so'm; xorijiy yetkazib beruvchilar va ishlab chiqaruvchilar uchun AQSh doll., yevro, Rossiya rubli.

6. Tenderda ishtirok etish uchun tender ishtirokchisi:

- tender shartlari bilan tanlishish uchun www.xrid.uz maxsus axborot portalida joylashtirilgan tender hujyatining elektron versiyasini yuklab olishi;

- tender hujyatida ko'rsatilgan shakklardan biriga muvofiq tender taklifi amal qilish muddati davomida kafolatni taqdim etishi;

- tender hujyatini talablarga muvofiq rasmiylashtirib, o'z vaqtida tender taklifini taqdim etishi lozim.

7. Xarid komissiyasi tomonidan tenderda ishtirok etish uchun ruxsat beriladigan ishtirokchilarni malakali saralash bosqichi o'tkaziladi. Tender ishtirokchilari uchun malakali saralash talablari tender hujyatlarida belgilangan.

8. Tender takliflarining shakli va tender takliflarini kafolatlash tartibi, tender takliflarini rasmiylashtirish hamda

ularni taqdim etish tartibi, tijoriy shartlari, texnik talablar, shartnoma loyihami va b. tender hujyatida keltirilgan.

9. Tender ishtirokchisi tender hujyatni tartiblari yuzasidan tushuntirish so'rab, rasmni shakla so'rovnomaga yuborish huquqiga ega. Buyurtmachi ushbu so'rovnomaga kelihi tushgan kundan boshlab, ikki ish kuni mobaynida ilovalda keltirilgan shakliga muvofiq tushuntirishlarni yuborishi lozim (agar so'rovnomaga takliflarni taqdim etish muddati tugashidan kamida ikki kun avval topshirilgan taqirda). Tender hujyatining qoidalarini tushuntirishda tenderning mohiyati o'zgartirilmasligi kerak.

10. Tender hujyatining tartib va qoidalarini tushuntirish uchun ariza shaklini tashkilotning firma blankasida tashkilot rahbari imzosi va muhri bilan rasmiylashtirishi kerak.

11. Tender takliflarni qabul qilishning oxirgi mudodi — Toshkent shahri vaqtida **2019-yil 10-may, soat 15:00 gacha**, 100077, O'zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani, Sayram ko'chasi, 3 tor, 92-uy manzilida qabul qilinadi.

12. Tendersi o'tkazish joyi "O'quv ta'lif-ta'minot" DUK binosida.

13. Tender shartlari haqida ko'proq ma'lumot olish uchun buyurtmachining quyidagi vakillariga murojaat qilishningiz mumkin:

Rahbarning birinchi o'rinosari — Sayiddin Tillashayxov, tel: (71) 267-73-39.

Davlat xaridchilari bo'limi boshlig'i — Malika Djurbabekova, tel: (71) 267-01-83.

Bahor tantanasi

Uchtepa tumanidagi 287-maktabda "Balli qizlar!" bellashuvu o'tkazildi. Unda 2- "B" sinf o'quvchi qizlari to'rt shart bo'yicha bilim va mahoratini sinovdan o'tkazdi. Ishtirokchilarning she'riy tanishtiruv, bahr-u bayti aytilish, ona tabiat ne'matlarini asrab-avaylash hamda erkin mavzu bo'yicha chiqishlari bahor fasliga xos yangilashish u yasharish shukuhini tarannum etishga xizmat qiladi.

— O'quvchilarni milliy qadriyatlarimiz bilan tanishtirish, umrboqiy an'alarimizni ular ongi va qalibiga singdirishing tarbiyavi ahamiyati katta, — deydi sinf rahbari Zulfiya Tojixoyayeva. — Shuning uchun bellashuv qamrovini kengaytirib, unda asosiy qatnashchilar bilan birga, sindagi barcha o'quvchilarning ishtirokini ta'minlashga harakat qildik.

Bellashuv ishtirokchilari va ota-onalar faxriy yorliq, tashakkurnomalar bilan taqdirlandi.

Dilshoda MANAYEVA

Angren shahridagi ayrim fanlar chuqur o'rganiladi-gan davlat ixtisoslashtirilgan maktab-internati malakali o'qituvchilarni ishga taklif qiladi

Toshkent viloyat xalq ta'limi boshqarmasiga qarashli Angren shahridagi ayrim fanlar chuqur o'rganiladigan davlat ixtisoslashtirilgan maktab-internati hozirda ta'lim-tarbiya va ma'nnaviy ishlar natijalari bo'yicha viloyatda 1-, respublikada 3-o'rni egallab kelmoqda.

Ushbu maktab-internatga tanlov asosida:

matematika;
ingliz tili;
ona tili va adabiyot hamda boshqa fanlar bo'yicha birinchani va olyi toifa li o'qituvchilar ishga taklif qilinadi. Maktab-internatda tarif stavkalarining ustama foizlari mavjud. Shuningdek, hamma o'quv xonalari zamonaviy ta'mirlangan va jiholangan. O'qituvchilarning mazmunli dars o'tishlari uchun sharoitlar (**AKT, multimedia jihatolari va h.k.**) yaratilgan.

Murojaat uchun manzil: Toshkent viloyati, Angren shahri, 48-daha, 1- "B" uy.

Telefon raqamlari:
(99) 401-85-00, (98) 366-00-85

**Biz sizni kutamiz,
aziz o'qituvchilar!**



Toshkent viloyat Chirchiq davlat pedagogika instituti huzuridagi xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududi markazi jamoasi "Pedagogika, psixologiya va ta'lim texnologiyalari" kafedrasidat detsenti

Oleg TADJIYEVning

vafoti munosabati bilan marhumning oila a'zolari va yaqinlariga ta'ziya bildiradi.

2019-yil 10-aprel, № 27 (9196)

Fizika dahosi

Bundan roppa-rosa 140-yil muqaddam — 1879-yilning 14-mart sanasida Germaniyaning Ulm shahrida barcha yaxshi taniyidigan, ammo nazariyalarini hamma ham tushunmaydigan daho, nisbiylik nazariyasi asoschisi Albert Eynshteyn dunyoga keldi.

O'rtahol oilada tug'ilgan Eynshteyn avvaliga diniy bilimlarni yaxshi o'zlashtirdi. 12 yoshidan unda dunyoviy ilmni o'rganishga qiziqish ortdi. Onasining tashabbusi bilan 6 yoshida skripka chalishni o'rgandi va bu musiqiy qobiliyati umrinning oxirigacha saqlanib qoldi.

Eynshteyn gimnaziyada yaxshi o'qib, bilimlarni chuqur o'zlashtirdi. Ammo bolaligidan rostgo'y, haqiqatparvar bol'gani bois, ayrim o'qituvchilarning bolalarga qilayotgan yomon muomalasi uning g'ashiga tegar, ko'pincha shu masalada ustozlari bilan bahslashib qoldari.

1894-yili Eynshteynlar oilasi Italianing Pavia shahriga ko'chib ketdi. Albert esa 6-sinfni tamomlaguniga qadar Myunxenda — qarindoshlarinikida qoldi. 1895-yilning kuz oyulari Shveysariyada biroz pul to'plab, Syurixdag'i oly texnika bilim yurtiga kirish imthonalarini topshirdi. O'qishni tamomlash arafasida fizikadan dars ham berdi. So'ng bilim yurti direktorining maslahati bilan Shveysariyadagi Arau maktabning bitiruv sinfida tahsil oldi. Bo'sh vaqtlar Maksvellning elektronnig nazariyasi o'rgandi. 1896-yili maktabni a'lo baholarga tamomlib, politexnikunning pedagogika fakultetiga o'qishga kirdi. Bu yerda u tibbiyot fakulteti talabasi — serbyaliyik Mileva Marich bilan tanishdi. Ular keyinchalik oila qurib, uch farzandli bo'lishiadi.

1900-yilli Eynshteyn politexnikumni tamomlab, matematika va fizikadan o'qituvchilik qilish huquqini beradigan diplom oldi. Ammo u endi nafaqat ilm-fan, balki kun ko'rish haqida ham bosh qotirardi. Ko'pchilik professorlar bo'lgusi olimning qobiliyatini yugori baholagan bo'lsa-da, hech kim unga ilmiy faoliyatini davom ettirishi uchun yordam berishni istamadi. 1901-yili Eynshteyn Shveysariya fuqaroligini oldi, biroq 1902-yilning bahoriga qadar doimiy ish topolmay, sарson bo'ldi. Hatto maktabga o'qituvchi bo'lib ham ishga kirolmadi. Nohorlik sabab bir necha kunlab och qolgan vaqtari bo'ldi. Shunday vaziyatlarda ortirgan jigar xastaligi umrinning oxirigacha azob berdi. Ammo har qanday holatda ham yosh olim fizikanı o'rganishdan aslo to'xtamadi.

Qiyin kunlari sobiq kursdoshi Marsel Grossman Eynshteyning joniga ora kirdi. Niroyat, u do'stining yordami bilan Bern shaharchasidagi ixtirolarni patentlash federal byurosiga ekspert vazifasiga ishga qabul qilindi. Albert u yerda yaxshigina maosh evaziga ixtirolar bayonotiga ekspert xulosalarini yozish bilan shug'ullanardi. Eng muhim, unda nazariy fizika sohasini o'rganish uchun ham bo'sh vaqt qoldari.

1904-yildan Eynshteyn "Fizika solnomasi" nomli nemis ilmiy jurnalida ishlay boshladidi. Nashrida olimming XX asr fizika fani rivojiga katta ta'sir ko'satadigan ucta ishi chop ettili. Ammo o'sha kelezari yosh fizikning nazariy tahallari qanchalik muhim ahamiyatiga ega ekanini hech kim, hatto uning o'zi ham to'la anglab yetmagandi. Vaholani, ushu uchta ish hajm jihatidan ulkan bo'lmasa-da, mazmunan niroyatda salmoqli edi.

Olimming birinchi maqolasi muallaq zarrachalarning harakati haqida bo'lib, uni tajribadan o'tkazib, statistik fizikaga tatbiq etish uchun ko'p vaqt kerak bo'lindi. Ikkinci — "Fotoeffekt haqida" nomli maqolasida Eynshteyn yorug'lik tabiatini haqidagi faraz to'g'risida so'z yuritadi. Bu ish kvant nazariyasining asosi bo'lib, avvaliga buni ko'pchilik qabul qilolmadi.

Biroq oradan bir necha o'n-yil o'tib, olimning bu boradagi fikrlari o'z isbotini topdi. "Elektrodinamikaq harakatlarni jismalar" nomli uchinchi maqola esa Eynshteynga mashhurlik olib kelgan nisbiylik nazariyasinинг debobchasi edi. Yosh fizikning birin-ketin taqdirm etgan uchta ishi sohada katta yangilik bo'lib, ular e'lon qilingan 1905-yil ilm-fan tarixiga muhrlandi.

1907—1915-yillari Eynshteyn o'zining mashhur gravitatsiya nazariyasi ustida ish olib bordi. U o'z nazariyasi orqali tortishish maydoni va zamona geometriyasi orasidagi chambarchas bog'lilikni istobtashga urindii. Maqolalarida astronomik obyekti qancha yirik bo'lsa, uning tortishish maydoni ham shuncha katta bo'lishi, vaqt esa sekinlashishini bayon etdi. Umumiy nisbiylik nazariyasi yaratish uchun Nyuton davridagi mavjud zamona makon haqidagi klassik tushunchalarni qayta ko'rib chiqdi.

XVII asrda Nyuton butun olam tortishish qonuni jismalarning bir-biriga o'zaro kuch ta'sirida tortishishi yozgandi. Ushbu olamshumul nazariyasi tufayli astronomalar sayyoralar harakatini hisoblab chiqish va ko'not bilan bog'lilik boshqa ko'plab kashfiyotlarni ochishiga muvaffaq bo'ldi. Biroq XIX asr o'talariga kelib, Nyuton tenglamasida qayd etilmagan hodisa — Merkuriy sayyorasining o'ziga xos harakatlanishi aniqlandi. Bu hodisa Eynshteyning "Fazo shakliga ega. U egrи-bug'rilik, past-balandliklardan iborat. Vaqt hamma uchun bir xil emas" degan g'oyalarini asoslardi. Ammo Eynshteyn uzoq vaqtgache xayolida aylanish yurgan bu fikrlarni ilmiy isbotlovchi asosiy "kalit"ni topolmadidi. Uning nisbiylik nazariyasi birdan tan olinmadidi, hatto tushunilmadi. Birinchi uch yillarda ufaqt nazariy fizika sohasidagi tor doira kishilariniga qiziqtiadi.

Kunlarning birida ingliz astrofizi Arut Eddington inglizlar va nemislar urush tufayli yuzaga kelgan nifoq va qaramaqshiliklarga qaramay, Eynshteyning maktub yo'llab, uning nazariyalariga

befarq emasligi, o'zini qiziqtitrayotgan bir savol yuzasidan olimning fikrini bilmogchiligini aytib, Merkuriy nega boshqa sayyoralar kabi umumiy qoidaga bo'yosunmasligini so'radi. Eynshteyn xatni olib, savolni o'qigach, birdaniga miyasisda yorug'li paydo bo'ladi va uni anchadan buyon qiyontagan gravitatsiya nazariyasi asoslash yechimini topadi. Va bu boradagi fikrlarini maktub orqali Eddingtonga yubordi.

Merkury bilan bog'lilq hodisadan so'ng 1919-yili ingliz astrofizi Arut Eddington Eynshteyning nisbiylik nazariyasi ilgari surilgan qarashlarni ilmiy tekshirish maqsadida Atlantikadagi Prinsipi orollariga maxsus ekspeditsiya uyushtirdi. Shu yilning 29-mayida Eddington kutganidek to'liq quyosh tutilishi sodir bo'ldi. Bu fizik hodisa Eynshteyning "Quyoshga yaqin kelganida yulduzlarining yorug'ligi bir tomoniga o'gadi". Chunki fazo shakliga ega va u jismalarni o'zi istagan chiziqa harakatlantiradi" degan farazlarini tekshirish uchun ajoyib imkoniyat edi. Artur Eddington jarayonda Quyosh tutilishiga oid 16 ta surat olib, ularni ingliz olimlari ishtirokida katta yig'ilishda raqamlarni hisoblab chiqdi va mammuniyat bilan Eynshteyning nisbiylik nazariyasi to'la asosli ekanini barchaga ma'lum qildi. Ko'p chilik ishonishni istamagan bu haqiqat o'z isbotini

topgach, Albert Eynshteyn hech bir olim erishmagan mashhurlikka erishdi.

Shundan so'ng barcha nisbiylik nazariyasi haqida gapira boshladi. Olamshumul nazariyha haqida barcha mamlakatlar gazetalarida bong urildi. Bu nazariyaning mazmun-mohiyati yoritilgan ommabop risolalar chop etildi. Jurnalistlar Eynshteyndan intervju olish uchun navbat kuta boshladi. Fotomuxbirlar esa fizikning yorqin suratini tasmaga muhrash uchun oylab uning yo'llini poyldardi. Ammo niroyatda kamtarin, shuhratni xushlamaydigan va juda hazilkash Eynshteyn ularning bu harakatlarini shunchaki jilmayish bilan qabul qildari. Hatto bir kuni xira fotoreportoryordan birining "Kuling!" degan murojaatiga javoban yuzini burihsitrib, tilini chiqarib suratga tushadi. O'sha-o'sha, buyuk olimning ushbu hazilomuz surati odamlar orasida juda mashhur.

Eynshteyn o'z nazariyasi bilan Nyutonning tortishish qonunidagi ayrim kamchiliklarni to'ldirdi. Uning nisbiylik nazariyasi XX asrda fizika oida qora tuyunk, katta portlashlar, vaqtning sekinlashishi va boshqa ko'plab hodisalarini nafaqt tushunish, balki qayd etish va ilmiy asoslash imkonini berdi.

Ko'pincha "Nisbiylik nazariyasi" yaratishga qanday muvaffaq bo'ldingiz? deb savol berishganida, Eynshteyn hazil aralash jiddiylik bilan "Nisbiylik nazariyasi nega aynan men yaratdim?"

Har safar o'zimga shunday savol berganimda, xayolimda bir javob aylanadi. Ya'ni, risoladagide odam zamon va makon muammolarini ustida umuman bosh qotirmaydi. Chunki unga bu haqida bolaligidayoq o'ylab bo'lgandek tuyuladi. Men intellektual jihatdan sekin rivojlanganman shekilli, zamon va makon haqidagi fikrlar mening xayolimni katta bo'lganimdan keyin band etdi. Tabiyki, mening muammo haqidagi o'yilarim havaskor bolalarnikidan ancha chuqurroq", deb javob beradi.

Eynshteyn o'z davrining chinakam dahosi edi. Uni shunday atashganida, doim bolalarcha jilmaydi qo'yardi. Chunki u hech kimdan maqtov yoki mukofot kutmasdi, shunchaki, sevimli ishi — nazariy fizika bilan shug'ullanardi. Nobel hay'ati arxivida yozilishicha, 1910—1922-yillarda mukofotning fizika o'yinalishi bo'yicha 60 marta Eynshteyning nomzodi ilgari surilgan. Nomzodlar orasida Lorenz, Plank, Bor, Vin, Xvolson, De XaaZ, Laue, Zeeman, Kamerling-Onnes, Adamar, Eddington, Sommerfeld va Arrhenius kabi mashhur fiziklar ham bo'lgan. Ammo Shvetsiya qirolliq fanlar akademiyasi a'zolari har gal mukofot berishda inqilobiy nazariya muallifi nomzodini bi chetda goldirgan.

